

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI**

**A.AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT
MILLIY INSTITUTI**

“TASDIQLAYMAN”



**A. Avloniy nomidagi pedagogik
mahorat milliy instituti**

A. Ismailov

“10” 01 2026-yil

“MA’QULLANDI”



**Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi raisi**

A. Yusupov

“ ” 2026-yil

Pedagogika fanlari bo‘yicha

**13.00.01 – “Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi”
(maktab ta’limi yo‘nalishi) ixtisosligi bo‘yicha malakaviy imtihan
D A S T U R I**

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2026-yil
“ 31.01 ” 381/4 sonli qarori bilan tasdiqlangan**

Toshkent – 2026

ANNOTATSIYA

13.00.01 - Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi (*maktab ta'limi yo'nalishi*) ixtisosligidan malakaviy imtihon qabul qilish dasturi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" Qonuni hamda pedagogika fanini rivojlantirishga oid mavjud me'yoriy hujjatlar asosida yaratilgan bo'lib, psixologik-pedagogik tayyorlash tizimining muhim tarkibiy qismidir. Uning asosiy maqsadi – pedagogika ixtisosligi bo'yicha talabgorning nazariy va kasbiy tayyorgarlik darajasini uning ushbu fanning shakllanishi va rivojlanishi tarixini, umumiy konsepsiyalari va metodologiya masalalarini, manbalarini, shu bilimlar tarmog'ining asosiy nazariy va amaliy muammolarini, mavjud materialni bilish darajasini aniqlab berishi, uning ilmiy adabiyotni, shu jumladan, chet el davriy nashrlarini hamda ilmiy tadqiqotlarning zamonaviy usullarini qanchalik egallaganini ko'rsatib berishi lozim.

Tuzuvchilar:

Xakimova Dildora Mashrabjonovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Abdullayeva Shaxzoda Abdullayevna
pedagogika fanlari doktori, professor

Ibragimov A'lamjon Amrilloevich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Alkarova Feruza Nazarbayevna
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Taqrizchilar:

Xurramov Isroil Abdurashidovich
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Maxmudov Abduxalim Xamidovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Ushbu dastur institut A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Kengashining 2026-yil 15-yanvardagi navbatdan tashqari 2-son majlisida tasdiqlangan

SO‘Z BOSHI

Pedagogika fani ilmiy tadqiqotchilarda pedagogik madaniyatni rivojlantirish, ularda yangicha tafakkurni shakllantirish, umumiy kasb tayyorgarligini ta'minlashga yo'naltirilgan.

Pedagogika nazariyasidan pedagogik ma'lumotga ega har bir talabgor, qaysi fan mutaxassisi bo'lib yetishishidan qat'iy nazar, o'quv-tarbiyaviy faoliyatni muvaffaqiyatli olib borishi uchun zarur bo'lgan pedagogik bilimlar va ko'nikmalarning umumiy hajmini, umumkasbiy va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim talablarini bilishi lozim.

Pedagogika tarixi talabgorning umumpedagogik bilim darajasini, pedagogik merosimizga hurmat bilan munosabatda bo'lishini aniqlaydi. Ta'lim va tarbiya nazariyasi va amaliyoti, tarbiya va ta'lim, uning rivojlanish jarayoni jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va har bir tarixiy bosqichda ilmiy bilimlar darajasi bilan bog'liqligi to'g'risida aniq tasavvur hosil qiladi.

Bunda pedagogikaning ijtimoiy taraqqiyot talabiga javob bergani, ilmiy taraqqiyot bir butun tarbiya nazariyasi va amaliyoti ekani hisobga olingan. Ta'lim amaliyoti, shuningdek, ta'limdagi yutuqlarning muhimligi ham nazarda tutiladi. U yoki bu pedagogik konsepsiya, ta'limotni tavsiflaganda shu ta'limotlar ijodkorining hayoti va faoliyatidagi eng muhim voqealarni asos qilib olish nazarda tutilgan.

“Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi” ixtisosligi bo'yicha dasturning maqsad va vazifalari: talabgorlarni hozirgi zamon pedagogika fanining nazariy asoslari bilan qurollantirish; pedagogik tafakkurni shakllantirish negizini yaratish; pedagogik fikrlash qobiliyatini shakllantirish; “Ta'limning pedagogik qonuniyatlari hamda tamoyillari”ga mos holda tegishli qarorlar qabul qilish; Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy, Yan Amos Komenskiy, K. D. Ushinskiy va boshqa mutafakkirlarning ta'limiy-axloqiy, umumbashariy qadriyatlari hamda mamlakatimiz Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning nutqlaridagi umuminsoniy va ma'naviy-axloqiy tamoyillarni bilish; hozirgi zamon ta'lim texnologiyalarini bilish hamda ularni amaliyotda qo'llay olishga o'rgatishdan iborat.

“Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi” ixtisosligidan bilim va ko'nikmalarga qo'yiladigan talablar: mazkur ixtisoslikni o'rganish jarayonida quyidagi pedagogik tushunchalarni bilish va ko'nikmalarga ega bo'lish zarur:

ta'lim-tarbiya ishlarini mustaqillik g'oyalaridan foydalanib, pedagogik qonuniyatlar va tamoyillarga uyg'un holda o'tkazish;

pedagogik faoliyatni rejalashtirishda yaqin, o'rta davr va istiqbolni ko'zlab maqsad, vazifalarni belgilash;

amaliyotda o'qitish hamda ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning asosiy shakllarini, qulay metod va vositalarini qo'llash, ma'lum vaziyatlarda ulardan to'g'ri foydalana olish;

ta'lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar, Sharq va G'arbning ilg'or pedagogik tajribalaridan foydalangan holda tashkil etish;

o'z oldiga qo'ygan vazifalar to'g'ri bajarilishini tashkil etish;

shaxs faoliyati va xulqini rag'batlantirib borish;

pedagogik vaziyatlar, ta'lim va tarbiya natijalarini tahlil eta olish, jamoani o'rganish;

o'zlashtirmaslik sabablarini, kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish uchun samarali tadbirlarni belgilash;

o'z bilimini oshirib borish, amaliyotda pedagogika fanidagi yutuqlar, ilg'or tajribalardan foydalanish, qulay pedagogik tadqiqotlar o'tkazish, pedagogik faoliyatda yuzakichilik va bir qolipda ishlashga yo'l qo'ymay, ishga ijobiy munosabatni namoyon etish;

sinf rahbari va tarbiyachi-murabbiy vazifalarining samaradorligiga erishish, ota-onalar, mahalla, jamoatchilik bilan muloqot va o'z-o'zini boshqarishni tashkil etish.

Talabgorlar "Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi" fanini o'rganish davomida zamonaviy ta'lim texnologiyasi, kompyuter, axborot texnologiyasi, pedagogik vaziyatlarni modellashtirish, pedagogik mazmundagi amaliy, ilmiy tadqiqot topshiriqlarini bajara olishini namoyon eta olishlari zarur.

Talabgorlarning "Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi" ixtisosligidan o'rganishi zarur bo'lgan minimum bilimlar mazmuni

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida pedagogika fani va uning jamiyatda tutgan o'rnini haqida. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda fuqarolarning o'rta umumiy ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni olish huquqining kafolatlari; uzluksiz ta'lim va uning faoliyat ko'rsatish prinsiplari, ta'limning ustuvorligi, ta'limning demokratlashuvi, ta'limning ijtimoiylashuvi, ta'limning milliy yo'naltirilgani, ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi; uzluksiz ta'lim tizimi va turlari; maktabgacha ta'lim, umumiy ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'lim; fan tabiat va jamiyat taraqqiyoti haqidagi yangi fundamental va tadqiqiy bilimlarni shakllantirish, yuqori malakali ilmiy va pedagogik kadrlar tayyorlash sohasi sifatida.

Pedagoglik kasbi. Pedagoglik kasbining paydo bo'lishi va ravnaq topishi. Sharq mutafakkirlari (Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy va boshqalar) va G'arb pedagoglari jamiyatda pedagoglik kasbining tutgan o'rnini haqida. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev demokratik-huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurishda barkamol shaxsni shakllantirishning tutgan o'rnini haqida. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida ta'lim muassasalari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish haqida.

Barkamol shaxsni shakllantirishga qo'yiladigan talablar. O'qituvchi-murabbiyning o'ziga xos fazilatlarini, ilmiy dunyoqarashi va insonparvarligi. Uning ijtimoiy-pedagogik nuqtayi nazarini, barkamol avlod tarbiyasi uchun o'qituvchi-murabbiyning jamiyat oldidagi mas'uliyati, uning kasbiy bilimlari va ko'nikmalari. Pedagog iste'dodi va qobiliyati. O'qituvchi-murabbiyning pedagoglik axloq-odobi va xushfe'lligi, uning o'quvchilar, ota-onalar va hamkasblari bilan muloqoti.

Pedagogik mahoratni egallash yo'llari: Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy, Yan Amos Komenskiy, Hamza

Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy, Shakuriy va Behbudiy kabi buyuk shaxslarning ilmiy salohiyati va pedagogik madaniyati. Ularning pedagogika fani va maorif rivojiga qo'shgan hissasi.

2. Pedagogika fan sifatida. Uning predmeti, maqsad va vazifalari. Pedagogik tadqiqot metodlari. Pedagogika ijtimoiy fan sifatida. Uning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni, rivojlanish bosqichlari va ilmiy-nazariy, amaliy istiqbolni belgilash vazifalari. Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari va tushunchalari: tarbiya, ta'lim (o'qitish, o'qish), ma'lumot, bilim, ko'nikma va malakalar, rivojlanish. Pedagogika fanining tuzilishi. Pedagogika fanining tarmoqlari. Pedagogikaning falsafa, sotsiologiya, psixologiya, fiziologiya, tibbiyot va boshqa insonshunoslik fanlari bilan aloqasi. Pedagogika fanlari tizimi. Asosiy pedagogik jarayonlar va ularning bir butunligi, pedagogik jarayonlarni tadqiq qilishning o'ziga xos xususiyatlari. Ilmiy-pedagogik tadqiqotlarning nazariy va amaliy jihatlari. Pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlari va ularning tavsifi. Nazariy tadqiqot metodlari: qiyosiy-tarixiy tahlil, qiyosiy taqqoslash, umumlashtirish, modellashtirish va boshqalar. Amaliy tadqiqot metodlari: ilmiy kuzatish, suhbat, intervyu, so'rovnoma, test, reyting, statistik tahlil, hujjatlar tahlili, ilmiy tajriba, ilmiy tajriba sinovi (tabiiy, laboratoriya, amaliy va boshqalar). Tajriba-sinov ishlari va ularni kuzatish metodikasi.

3. Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi. Pedagogik antropologiya. Shaxs haqida tushuncha. Individ – shaxs, shaxsning o'ziga xosligi. Shaxs rivojlanishining biologik va ijtimoiy asoslari hamda jihatlari. Shaxs rivojlanishi va tarbiyasining o'zaro uyg'unligi. Bola shaxsi tarbiya obyekti va subyekti sifatida. Shaxs faoliyati. O'quvchi-yoshlarni yosh xususiyatlariga ko'ra davrlarga bo'lish. Ijtimoiylashuv jarayonida shaxsning shakllanishi.

4. Tarbiya maqsadi va vazifasi. Tarbiya maqsadi. Tarbiya maqsadining xilma-xilligi. Hozirgi demokratik jamiyatda har tomonlama rivojlangan, mustaqil fikr yuritadigan erkin shaxsni shakllantirish tarbiya maqsadi sifatida. O'zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoyev mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy ildizlari haqida. Sharq mutafakkirlari (Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Jomiy, Davoniy, Navoiy, Avloniy va boshqalar) barkamol shaxs tarbiyasi haqida. Tarbiya vazifalari va mazmuni, shaxsning milliy va umumbashariy qadriyatlarini o'rganishi, uning intellektual (aqliy), fuqarolik, ma'naviy-axloqiy, jismoniy, mehnat, iqtisodiy, ekologik, estetik tarbiyasi haqida. Xorijiy mamlakatlar tarbiya konsepsiyasining asosiy g'oyalari.

5. Didaktika ta'lim nazariyasi sifatida. Ta'lim paradigmalari. Ta'lim va o'qitish nazariyasi (didaktika) pedagogika fanining tarkibiy qismi hamda ma'lumotli bo'lish ma'naviy-amaliy faoliyat jarayoni sifatida. Ta'limning jamiyatda tutgan o'rni. Didaktikaning vazifalari va ahamiyati, asosiy tushunchalari. Hozirgi davr didaktikasi rivojlanishining asosiy yo'nalishlari (konsepsiyasi). Uzluksiz ta'lim konsepsiyasi. Rivojlanuvchi va tarbiyalovchi ta'lim konsepsiyasi. Uni hozirgi davr pedagogikasida amalga oshirishga turlicha yondashuvlar. O'quv jarayonini "texnologiyalashtirish" konsepsiyasi. Uning ijobiy va salbiy tomonlari. Hozirgi davr didaktikasi tizimlari (an'anaviy va zamonaviy). Hozirgi davr pedagogikasida ta'lim

paradigmaları: an'anaviy-konservativ, ilmiy, insonparvarlashgan (mantiqiy), ratsionalistik (bixevioristik), texnokratik, ezoterik.

6. Ta'lim jarayoni yagona tizim sifatida. Ta'lim tamoyillari. Ta'lim jarayonining mohiyati. Ta'lim jarayonining yagona tizim sifatida tasnifi. Ta'lim borliqni bilishning o'ziga xos shakli sifatida. O'qitish va o'qish jarayonlari tavsifi, ularning ta'lim jarayonidagi o'zaro aloqasi. Sharq (al-Forobiy, Beruniy, Ibn Sino) va G'arb mutafakkirlarining gneseologik g'oyalari (qarashlari) ta'lim jarayonining asosi sifatida. Ta'lim jarayonida o'zaro aloqa va bolalarning rivojlanishi. O'qitishning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarining birligi. O'quvchi-yoshlarning o'quv faoliyati va uning tuzilishi. Tarbiyalanuvchilarning reproduktiv va ijodiy bilish faoliyati. Bilimlarni o'zlashtirish, malaka va ko'nikmalar jarayoni hamda shaxsning rivojlanishi. Ta'lim jarayonini tashkil qilishda tarbiyachilar yo'l qo'yadigan xatolar va ularning oldini olish. Ta'lim qonuniyatlari va tamoyillari. Ularning psixologik va fiziologik asoslovi. Sharq mutafakkirlari ta'lim tamoyillari haqida.

7. Ta'lim metodlari va vositalari. Ta'lim metodlari va usullari haqida tushuncha. Hozirgi zamon didaktikasi va xususiy metodikasida ta'lim metodlarini tavsiflashga turlicha yondashuvlar. Ayrim ta'lim metodlarining tavsifi. Sharq mutafakkirlari (Forobiy, Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino va boshqalar) ta'lim metodlari haqida. Turli yosh guruhlarida ta'lim metodlarini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari. Ta'lim mazmunining o'ziga xos xususiyatlari va o'quvchilarning bilish faoliyati, rivojlanish darajasiga ko'ra ta'lim metodlarini faollashtirish yo'llari. Ta'lim metodlarini takomillashtirish. Pedagogika tajribasida ta'lim metodlari samaradorligini oshirish yo'llari. Ta'limning texnik vositalari, kompyuterlar va turli audiovizual vositalardan foydalanish imkoniyatlari.

8. Ta'limni tashkil etish turlari va shakllari. Ta'limni tashkil etishning asosiy shakllari. Ta'lim turlari: illyustrativ (an'anaviy); problemali (muammoli); programmashtirilgan ta'lim. Ta'limni tashkil etish haqida tushuncha, uning xilma-xil turlari. Ta'lim maqsadi va o'quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'quv ishlarining turli shakllaridan foydalanish. Ta'limni tashkil etishning an'anaviy shakli. Dars tiplari va tuzilishi. Hozirgi zamonda dars va darslarni modernizatsiyalash yo'llari. Darsda o'quvchilar o'quv faoliyatini tashkil qilishning yalpi, guruhli va yakka tartibdagi shakllarini uyg'unlashtirish. Ta'limni tashkil etishning noan'anaviy shakllari; o'quv dialogi, munozara, didaktik (ishbop, rol) o'yinlar, trening, press-konferensiya, o'tkir zehnlilar klubi, musobaqa darslari, auksion, mo'jizalar maydoni, "tergovni bilimdonlar olib boradi", bahribayt va boshqalar. Ma'ruza va seminar mashg'ulotlari, konsultatsiyalar, ekskursiyalar, praktikumlar, konferensiya. O'quvchilarning uy vazifalari, uni tashkil etish mazmuni va metodlari. Ta'lim shakllarini rivojlantirish istiqboli. O'quv ishlarini tashkil etishning darsdan tashqari shakllari: fan to'garaklari, ilmiy jamiyatlar, olimpiadalar va boshqalar. O'qituvchi faoliyatida o'quv ishlari turli shakllarining o'zaro aloqadorligi.

9. Tarbiya jarayoni mohiyati va mazmuni. Tarbiya tamoyillari. Tarbiya jarayoni tushunchasi va tuzilishi. Pedagogik jarayon qonuniyatlari. Tarbiya jarayoni mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari. Tarbiya jarayoni tizimi va tuzilishi hamda

uning qonuniyatlari. Tarbiya jarayoni mazmuni hamda tarbiyalanganlik mezonlari. Tarbiya tamoyillari. Unga qo'yiladigan talablar tavsifi. Tarbiyaning ijtimoiy yo'nalganligi va yaxlitligi; tarbiyaning ijtimoiy hayot, mehnat faoliyati bilan aloqadorligi; har bir o'quvchi shaxsining o'ziga xos va shaxsiy munosabat hamda yosh xususiyatlarini hisobga olish. Tarbiyaviy ta'sir etishda yagona talab va uyg'unlik.

10. Bolalar tarbiya jamoasi – yagona pedagogik jarayonning asosiy shakli. Mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllantirish ta'lim va kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy maqsadi sifatida. Sharq mutafakkirlari (Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Navoiy, Avloniy va boshqalar) barkamol shaxsga xos fazilatlar haqida. Shaxsning boshqalar bilan muloqot qilishga ehtiyoji. Shaxsning jamoada qaror topishi. Jamoa haqida tushuncha. Sharq mutafakkirlari jamoa va uning shaxsga ta'siri to'g'risida. Jamoaning pedagogik vazifalari. Jamoaning turlari. Bolalar va yoshlar jamoasining belgilari va tuzilishi. Jamoaning tarkib topish mexanizmi bosqichlari. O'quvchi-yoshlar uyushmalariga pedagogik rahbarlik.

11. Tarbiyaning umumiy metodlari. Tarbiya metodlari haqida tushuncha. Tarbiya metodlarining maqsadi, prinsiplari, mazmuni va o'quvchilarning yosh, o'ziga xos xususiyatlariga, tarbiyalanganlik darajasiga bog'liqligi. O'zbek xalq pedagogikasida tarbiya metodlari. Tarbiyada ibrat – namuna ko'rsatishning tutgan o'rnini. Ishontirish metodlari, hikoya, munozara, suhbat, ma'ruza va boshqalar. Tarbiya usullari; muhokama, ishonch bildirish, tushunish, hamdardlik bildirish, rag'batlantirish, tanqid va boshqalar. Ijtimoiy xulq-atvor tajribasini shakllantirish metodlari: bolalar faoliyatini uyushtirish va ular bilan hamkorlik qilishning mohiyati. Jamoa istiqboli, o'yin, yagona talablar, o'z-o'zini boshqarish, musobaqa, o'z-o'ziga xizmat va boshqalar.

12. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish va o'quvchilarni aqliy tarbiyalash. Ilmiy dunyoqarash, tafakkur va milliy mafkurani shakllantirish o'quv-tarbiya jarayoni maqsadi sifatida. Aqliy tarbiya va ilmiy dunyoqarashning asosiy belgilari va mohiyati. Ilg'or ilmiy dunyoqarashning asosiy tarkibiy qismlari: ilmiy qarash, e'tiqod, ilmiy tafakkur. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Prezident Sh. Mirziyoyev asarlarida yoshlarning aqliy kamoloti, tafakkuri va ilmiy dunyoqarashiga qo'yilgan talablar. Sharq mutafakkirlari (Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, NAQSHbandiy, Navoiy va boshqalar) ilmiy bilim va aqliy tarbiyani tashkil qilish, uning mazmuni va metodlari haqida. Aqliy tarbiyaning vazifalari va mazmuni. Bilim, malaka va ko'nikmalarning shakllanishi aqliy tarbiya asosi sifatida. O'quvchilarning intellektual rivojlanishi.

Umumiy ta'lim fanlarini o'qitishda aqliy faoliyat madaniyati, malaka va ko'nikmalarini shakllantirish. Iqtisodiy tarbiya o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning tarkibiy qismi sifatida. Bozor munosabatlari hamda iqtisodiy islohotlar sharoitida tarbiyaning vazifalari va mazmuni. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev jamiyatni yangilash sharoitida iqtisodiy tamoyillar haqida. Dars, darsdan tashqari mashg'ulotlar va oilada iqtisodiy tarbiya. Ekologik tarbiya o'quvchilar dunyoqarashini shakllantirishning tarkibiy qismi sifatida. Ekologik ong va madaniyatni shakllantirish. Dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar hamda oilada ekologik tarbiya shakl va metodlari.

13. Fuqarolik tarbiyasi. Shaxsni shakllantirish, kamol toptirish jarayonida fuqarolik tarbiyasining vazifalari va mazmuni. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida yoshlarning fuqarolik tarbiyasi. Fuqarolik tarbiyasining vazifalari: ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi. Fuqaroning yetuklik mezonlari. O'quvchilarni fuqarolik ruhida tarbiyalashda davlat ramzlaridan (O'zbekiston Respublikasi madhiyasi, O'zbekiston Respublikasi gerbi, O'zbekiston Respublikasi bayrog'i) foydalanish. Fuqarolik tarbiyasining umuminsoniy jihatlari; tinchlikni saqlash, ekologik muammolar, tinchlik va jahon badiiy madaniyatini saqlash, iqtisodiy, ilmiy, madaniy hamkorlik. Vatanparvarlik va baynalmilallik – fuqarolik tarbiyasining asoslari. "Vatanparvarlik" tushunchasining mohiyati. Sharq mutafakkirlari (Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Navoiy, Avloniy va boshqalar) vatanparvarlik tarbiyasi haqida. Vatanni sevmok iymondandir. "Baynalmilallik" tushunchasining mohiyati xalqlar do'stligi, tenglik, birodarlik; millatlararo hamjihatlik; boshqa millat vakillari, ularning urf-odatlarini, an'alariga hurmat-ehtirom. Vatanparvarlik va baynalmilallik tarbiyasining mazmuni va metodlari, uning tashkil qilish shakllari. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi. Vatanni himoya qilish hissini shakllantirish. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining shakllari darslar, to'garaklar, klublar, "Vatanparvar" o'yini va boshqalar.

Huquqiy tarbiya. O'quvchilarda huquqiy ong va xulq-atvorni shakllantirish fuqarolik tarbiyasining tarkibiy qismi sifatida. Huquqning ijtimoiy vazifalari: boshqaruvchi, tartibga soluvchi, himoya qiluvchi, muhofaza etuvchi, tarbiyaviy.

Huquqiy tarbiyaning mohiyati va tuzilishi, huquqiy savodxonlik (huquqiy bilimlar) – boshlang'ich huquqiy bilimlarni egallash; axloqiy va siyosiy his-tuyg'ular – qonunga hurmat, fuqarolik shon-sharafini his qilish, huquqiy tafakkur – huquq me'yorlari nuqtayi nazaridan kishilarning xatti-harakatlari, fe'l-atvorini baholash. Huquqiy madaniyat-huquqiy tarbiyaning asosi sifatida. Huquqiy madaniyatning tuzilishi, huquqiy me'yorlarni bilish, ulardan foydalanish ko'nikmasi. Huquqiy tarbiyaning mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllari. O'quvchi-yoshlar o'rtasida huquqbuzarlikning oldini olishda huquqiy tarbiyaning ahamiyati.

14. Mehnat tarbiyasi. Shaxsni kamol toptirish jarayonida mehnat tarbiyasining maqsadi va vazifalari. Sharq mutafakkirlari mehnat tarbiyasi haqida. Mehnatning mohiyati va vazifalari. Mehnat qilish – ongning bosh vazifasi, odamlarda ongli mehnatkashlik, mulkdorlik psixologiyasini shakllantirish.

Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida ta'lim muassasalarida mehnat tarbiyasi tizimi va uning mazmuni. Mehnat faoliyatining asosiy turlari: o'quv mehnati, ijtimoiy foydali mehnat, o'z-o'ziga xizmat qilish mehnati, ishlab chiqarish mehnati. Bozor munosabatlarini rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar sharoitida iqtisodiy tarbiya vazifalari, metodlari va mazmuni.

15. O'quvchilarni yuksak ma'naviy-axloqiy tarbiyalash. Axloq ijtimoiy ong, ta'sir ko'rsatish va tarbiyalash shakli sifatida. Sharq mutafakkirlari (Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Navoiy, Abdulla Avloniy va boshqalar)ning ma'naviy-axloqiy g'oyalari, hozirgi kunda shaxsni ma'naviy-axloqiy kamol toptirish va shakllantirishda ularning ahamiyati.

Sh. Mirziyoyevning asarlarida shaxsni yuksak ma'naviy-axloqiy rivojlantirish va shakllantirishning asosiy tamoyillari; umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish, insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi, vatanparvarlik. Ma'naviy-axloqiy tarbiya mezonlari. Pedagogik qarovsiz qolgan o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari. O'quvchi-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash. Jinsiy tarbiya.

16. Nafosat tarbiyasi. Nafosat tarbiyasining maqsad va vazifalari. Maktabda nafosat tarbiyasining mazmuni, shakl va metodlari. Nafosat tarbiyasida umuminsoniy va milliy, ma'naviy qadriyatlardan foydalanish. Ta'lim jarayonida nafosat tarbiyasi. San'at asarlari, dunyo va milliy madaniyat, tarixiy va me'moriy yodgorliklarni, Vatan tabiati boyliklarini qadrlash va avaylab-asrash ko'nikmalarini shakllantirish. Yoshlarning nafosat tarbiyasida salbiy holatlarning oldini olish (yoshlar orasiga ma'naviy jihatdan saviyasiz san'at asarlarining kirib kelishiga yo'l qo'ymaslik). Jismoniy tarbiya. Shaxsning har tomonlama kamol topishida jismoniy tarbiyaning o'рни va vazifalari haqida. Sharq mutafakkirlari jismoniy tarbiya haqida. O'quvchi-yoshlarni jismoniy tarbiyalashning kompleks dasturi. Jismoniy tarbiyaning chaqiriqqacha harbiy tayyorgarlik bilan bog'liqligi. Jismoniy tarbiyaning tashkiliy shakllari. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari, jismoniy tarbiya va sport seksiyalari. Ommaviy bayramlar. Musobaqalar. Turizm. Spartakiadalar. O'quvchi-yoshlar salomatligini mustahkamlash va chiniqtirishda tabiiy omillardan foydalanish. O'quvchi-yoshlar sport majmualarining o'ziga xos xususiyatlari. O'quvchilar gigiyenasi muammolari. O'quvchi-yoshlarning turmushi, mehnati, dam olishining kun tartibi, o'quvchilarda o'z-o'zini jismoniy chiniqtirishga rag'bat uyg'otish. Oilada bolalarning jismoniy tarbiyasi. Ular tarbiyasining jinsiy va axloqiy-estetik jihatlari. O'quvchi-yoshlarni kashandalik va alkogolizmga nafrat ruhida tarbiyalashning jismoniy va axloqiy jihatlari.

17. Oilada tarbiya asoslari. Jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida oila tarbiyasining konseptual asoslari; umuminsoniy qadriyatlar, shuningdek, to'g'rilik, or-nomus, qadr-qimmat, mehr-shafqat, insonparvarlik va mehnatsevarlik, yaxshilikka yaxshilik bilan javob qaytara olish kabi fazilatlarini shakllantirish. Oila va uning tarbiyaviy vazifalari. Oilaning hozirgi davrdagi muammolari. Oila a'zolarining axloqiy munosabatlari. Oila tarbiyasining huquqiy asoslari. Davlat va hukumatning oilani mustahkamlashga g'amxo'rligi. "Maktab, oila va jamoatchilik" konsepsiyasining asosiy yo'nalishlarida oila va jamoatchilikning o'zaro aloqadorligi shakllari. Sharq mutafakkirlari Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy va boshqalar oila tarbiyasi haqida. Oila tarbiyasida umuminsoniy va milliy an'analardan foydalanish.

Oila umuminsoniy qadriyat va jamiyatning asosiy negizi sifatida. Oila – o'ziga xos jamoa. Oilaning turmush tarzi, urf-odatlar, an'analar, fuqarolik yetukligi va madaniy munosabatlarning tarbiya jarayoni va natijalariga ta'siri. Oilaviy hayotni tashkil etish; oila a'zolarining kun tartibi, majburiyatlari. Oilaning farzandlar o'quv faoliyatiga g'amxo'rligi. Dam olishni tashkil etish. Oilada o'quvchilarni tarbiyalash shart-sharoitlari. Bolalarni ota-onalar va katta yoshlilarga hurmat ruhida tarbiyalash.

Oila tarbiyasi qoidalari. Oila tarbiyasida xatoliklar va qiyinchiliklar, ularni bartaraf etish yo'llari.

18. Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi fan va o'quv predmeti sifatida. Uning maqsad va vazifalari. Uning moddiy va ma'naviy taraqqiyot bilan bog'liqligi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning ta'lim-tarbiya jarayonida ajdodlar merosidan samarali foydalanishning tarbiyaviy ahamiyati haqida. Maorif va pedagogika tarixini davrlashtirish muammolari.

19. Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha: ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar. Eng qadimgi yodgorliklarda inson tarbiyasiga oid fikrlar. Qadimgi davrlarda tarbiyaning kelib chiqishi va uni kishilarning mehnat faoliyati bilan bog'liqligi. Ibtidoiy odamlar hayotida tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari. Folklor namunalarida og'zaki ta'lim usullarining ifodalanishi. Qadimgi afsonalar, qo'shiqlar, "O'gitnoma"larda axloq-odob, ta'lim-tarbiyaga oid masalalarning ifodalanishi. Qadimgi davlatlar – So'g'diyona, Baqtriya va Xorazmda ta'lim-tarbiyaning rivojlanishi. Mazkur davlatlarda pedagogik fikrlarning paydo bo'lishi. Eng qadimgi yozma manbalarda ta'lim-tarbiya masalalari. "Avesto" – eng qadimgi ma'rifiy yodgorlik namunasi. Qadimgi "Avesto", Xorazm, sug'd, uyg'ur, turkiy-run bitiklarining ta'lim-tarbiyani rivojlantirishdagi o'rni. O'rxun-Enasoy obidalari, ularning ma'rifiy ahamiyati. Kultegin, Bilga xoqon, Tunyuquq bitiklarida ta'lim-tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari. Turkiy xalqlarning dastlabki savod maktablari. Somoniylar davlatida yoshlarga harbiy-jismoniy tarbiya berish. "Oyinnoma" harbiy-jismoniy ta'lim-tarbiyaga oid dastlabki didaktik asar sifatida.

20. VII asrdan XIV asrning birinchi yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikr taraqqiyoti. Islom dini yoyilishining ta'lim-tarbiyaga ta'siri. Musulmon maktablarida ta'lim-tarbiya mazmuni. Arab tilining savdo va madaniy aloqalar tiliga aylanishi. Qur'onning muqaddas falsafiy-axloqiy asar sifatida o'rganilishi. G'azzoliy islom falsafasi va pedagogikasining asoschisi sifatida. "Kimyoyi saodat" asari va uning tarbiya taraqqiyotidagi o'rni. Masjidlar va ular huzuridagi maktablarda ta'lim-tarbiya. Savod chiqarish uslubiyoti. "Chor kitob" va "Haftiyak" dastlabki savod darsliklari sifatida. Hadis ilmining paydo bo'lishi. Imom Ismoil al-Buxoriy, at-Termiziy va boshqa muhaddislarning hadis ilmini yaratishdagi xizmatlari. Imom al-Buxoriyning "As-sahih", "Al-adab al-mufrad" asarlarining inson ma'naviy kamolotidagi o'rni. Sharq Uyg'onish davri va unda ta'lim-tarbiyaning taraqqiy etishi. Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolarning umumpedagogik hamda didaktik g'oyalari. Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Ahmad Yugnakiylarning ta'limiy-axloqiy qarashlari. Mahmud Qoshg'ariy va uning "Devoni lug'atit turk" asari. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig"i ta'lim-tarbiyaga oid birinchi asar sifatida. Kaykovusning "Qobusnoma" asari. Ushbu asarning pedagogik fikr taraqqiyotida tutgan o'rni. Ahmad Yugnakiy va uning "Hibat ul-haqoyiq" asari. Hunar o'rganishga doir risolalar haqida. Ahmad Yassaviy "Hikmatlar"ining axloqiy-ma'rifiy ahamiyati. Ta'limiy-axloqiy asarlarning tarjima qilinishi. Shayx Sa'diyning yirik axloqiy-falsafiy asari "Guliston"ning shaxs kamolotini shakllantirishdagi o'rni.

21. XIV–XVI asrlarda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar. XIV–XVI asrlarda Movarounnahrda ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar. Ijtimoiy hayotning

tarbiya, ta'lim va pedagogik fikr taraqqiyotiga ta'siri. Ilm-fan, ta'lim-tarbiyaning ravnaq topa borishi.

Movarounnahrda Amir Temurning markazlashgan davlati paydo bo'lishi va uning ilm-ma'rifat taraqqiyotidagi roli. Maktab va madrasalarda ta'lim-tarbiya xususiyatlari. Tabiiy fanlarni o'qitishning rivojlanishi. Ulug'bekning ilm-ma'rifat sohasidagi xizmatlari. Uning davrida ta'lim-tarbiya tizimi. Zahiriddin Muhammad Boburning ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya sohasidagi xizmatlari. Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Davoniy, Husayn Voiz Koshifiylarning ta'limiy-axloqiy merosi. Navoiyning "Hayrat ul-abror", "Mahbub ul-qulub" asarlari. Navoiyning maktab va madrasalarni rivojlantirishdagi faoliyati. Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiylarning axloqiy qarashlari. Jomiyning "Tuhfatul ahror", Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarlarining shaxs kamolotidagi ahamiyati. Davoniyning axloqiy qarashlari. "Axloqi Jaloliy" asarining pedagogik fikr taraqqiyotida tutgan o'rni. Husayn Voiz Koshifiyning axloqiy qarashlari. "Futuvvatnomayi Sultoniyy" asari va uning axloqiy tarbiyada tutgan o'rni.

22. XVII asrdan XIX asrning yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar. XVII–XVIII asr va XIX asrning birinchi yarmida Buxoro, Qo'qon va Xiva xonliklarida ilm-fan taraqqiyoti. Xonliklarda masjid-madrasalarning bunyodga kelishi. Madrasalarda "Qur'on", "Tafsir", "Odob as-solihin", "Sabot ul-ojizin", "Kimyoyi saodat", "Hadis", "Shamoyil ul-nabi", "Hikmat ul-ayn"larning o'rganilishi. Qo'qon va boshqa xonliklarda qizlar maktablari.

Jahon Otin Uvaysiy va uning qizlar maktabi. Muhammad Sodiq Qoshg'ariy va uning "Odob as-solihin" asari. Kaykovusning "Qobusnoma", Sa'diyning "Guliston" kabi ma'rifiy asarlarining turkiy tilga tarjima qilinishi. Muhammad Sodiq Qoshg'ariyning "Odob as-solihin" asarida odob-axloq masalalari.

23. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida tarbiya va pedagogik fikrlar. Turkiston o'lkasida islom-diniy tarbiyaviy muassasalarning an'anaviy tizimi. Turkistonda chorizm maktab siyosatining boshlanishi. Musulmon maktablariga bo'lgan salbiy munosabat. Turkiston o'lkasida pedagogik fikrlarning paydo bo'lishi. Siddiqiy, Hamza, Shakuriy, Avloniy, Behbudiy va boshqalarning maktab va maorifni rivojlantirishdagi xizmatlari. Turkistonda jadidchilik harakati. Yangi usul maktablarining paydo bo'lishi. I. Gaspirali faoliyati. Munavvar Qori, Avloniy, Shakuriy, Behbudiylarning yangi usul maktablarini tashkil etish borasidagi faoliyati. Saidrasul Saidazizovning "Ustodi avval" darsligi. Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarida ta'lim-tarbiya tizimi. Hamza, Fitrat faoliyati va milliy pedagogik merosi.

24. 24.1917–1990-yillarda O'zbekistonda maktab va pedagogika fani. 1917-yildan O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi e'lon qilingunga qadar bo'lgan davrda O'zbekistonda xalq ta'limi va pedagogika fanida turg'unlik. 70 yil davomida xalq ta'limida adolatsiz milliy siyosatning amalga oshirilishi. Xalq maorifi sohasida maktab darsliklari va o'quv qo'llanmalarining yaratilishi. Ta'lim-tarbiya jarayonining mustabid tuzum maqsadiga muvofiq tashkil etilishi va uning salbiy oqibatlari. O'zbekiston ma'rifatparvarlari Shakuriy, Behbudiy, Abdulla Avloniy, Hamza, Fitrat va boshqalarning ilmiy-pedagogik merosining o'rganilishi.

25. Mustaqil O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi va pedagogik fikr taraqqiyoti. O'zbekiston Respublikasida mustaqillikning e'lon qilinishi va ta'lim tizimidagi islohotlar. Milliy maktabni tashkil etish muammolari. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. Pedagogik tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlari. O'zbek xalqining ma'rifiy qadriyatlaridan ta'lim-tarbiyada foydalanish. O'zbekiston Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlar va barkamol avlod tarbiyasi haqida.

26. Jahon pedagogika fani rivojlanishi tarixining bayoni. Qadimgi Yunoniston va Rim davlatlarida ta'lim-tarbiya. Qadimgi Sharq davlatlarida va Yunonistonda pedagogik fikrlarning paydo bo'lishi. Qadimgi Yunoniston (Sparta, Afina) davlatlarida tarbiya va ta'lim tizimi. Qadimgi yunon faylasuflari (Suqrot, Aflotun, Arastu va Demokrit) ta'limotida tarbiya masalalari. G'arbiy Yevropa mamlakatlarida ta'lim-tarbiya. Y. A. Komenskiyning pedagogik tizimi. Uning pedagogika fani taraqqiyotidagi ahamiyati. Rus pedagog olimlarining pedagogik g'oyalari. K. D. Ushinskiyning pedagogik merosi. XIX asr va XX asr boshlarida G'arbiy Yevropa, AQSH, Rossiyada pedagogik islohotlar va uning asosiy oqimlari. Jahon mamlakatlarida pedagogikaning fan sifatida rivojlanishi.

27. Hozirgi davrda jahonning rivojlangan mamlakatlarida maktab ta'limi va pedagogika fani. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda ta'lim tizimi va maktablarda ta'lim-tarbiya amaliyoti. Jahon mamlakatlaridagi zamonaviy-ijtimoiy bilimlar tizimida pedagogika fani va uning asosiy omillari. AQSH, Yaponiya, Angliya, Turkiya, Janubiy Koreyada ta'lim va tarbiya tizimi, mazmuni va taraqqiyoti.

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
(maktab ta'limi yo'nalishi) ixtisosligi bo'yicha
malakaviy imtihon savollari

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining so'nggi besh yildagi maktab ta'limi sohasiga oid farmon va qarorlarida Vazirlar Mahkamasining qarorlarida belgilangan vazifalar tahlili.
2. Ta'lim sohasida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari.
3. Tarbiyaning paydo bo'lishi va tarixiy rivojlanishi. Maktab ta'limida uning ahamiyati.
4. Qadimgi davlatlar. So'g'diyona, Xorazm va Baqtriyada ta'lim-tarbiyaning rivojlanishi.
5. Eng qadimgi yozma manbalarda ta'lim-tarbiya masalalarining aks etishi.
6. Maktab ta'lim tizimida Abu Nasr Farobiy qarashlarining ahamiyati.
7. Alisher Navoiyning pedagogik qarashlarining maktab ta'limidagi o'rni.
8. Abu Rayhon Beruniyning ma'rifiy qarashlari. Ta'limda uning aks etishi.
9. G'arbiy Yevropada maktab va pedagogik fikrlar.
10. Yevropa va Osiyo Uyg'onish davrida gumanistik g'oyalarning shakllanishi.
11. Qadimgi yunon faylasuflari (Suqrot, Aflotun, Arastu va Demokrit) ta'limotida ta'lim-tarbiya masalalarining tavsiflanishi.
12. Jadidlarning pedagogik qarashlari. Ular faoliyatida ta'limning o'rni.
13. Ta'lim tizimi va turlari. Maktab ta'limining maqsad va vazifalari.
14. Zamonaviy pedagogikada ta'lim paradigmalari. Ta'lim jarayonida aks etishi.
15. Ta'lim mazmuni: asosiy tushunchalari, shakllantirishga qo'yiladigan talablar.
16. Ta'lim jarayonini tashkil etishda tarbiyachilar yo'l qo'yadigan xatolar va ularning oldini olish mexanizmlarini ishlab chiqish usullari.
17. Ta'limni tashkil qilishning an'anaviy shakllari. Dars turlari. Darsning tuzilishi.
18. O'quv jarayonini "texnologiyalashtirish" konsepsiyasi. Uning ijobiy va salbiy tomonlari.
19. Shaxsning psixologik va fiziologik rivojlanish qonuniyatlari.
20. Darsda o'quvchilar o'quv faoliyatini tashkil qilish. O'quv faoliyatining yalpi (ommaviy), guruhli va individual shakllari.
21. Ta'lim muassasalarini bozor munosabatlari sharoitida rivojlantirish strategiyasi.
22. O'quv-tarbiya jarayonini nazorat qilish: turlari va funksiyalari, baholash mezonlari.
23. Pedagogika fanida yangi tarmoqlarning yuzaga kelishi va rivojlanish istiqbollari.
24. Davlat ta'lim standartlari – tuzilmasi, ishlab chiqilishi va amalda qo'llanish tartibi.

25. Metodologiya tushunchasi. Metodologik bilimlar darajasi. Metodologik madaniyat.
26. Pedagogik muloqot tavsifi, uning turlari. Verbal va noverbal muloqot.
27. Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivojlanishining asosiy yo'nalishlari.
28. Kreativlik tushunchasi, ta'riflari va pedagogik psixologik asoslari. Maktab ta'limida kreativlikning ahamiyati. Jahon maktablarida kreativlikning o'rni.
29. Bilim, ko'nikma va malaka tushunchalari tavsifi. Ularning o'zaro bog'liqligi. Kompetensiya farqi. Maktab ta'limida ushbu tushunchalarning o'rni
30. Pedagogik texnika va uni shakllantirish uslublari.
31. Zamonaviy jahon maktab ta'lim tizimidagi global tendensiyalar.
32. Maktab o'quvchilari yosh bo'yicha davrlari tavsifi, yosh davrlari psixofiziologiyasi.
33. Didaktikaning asosiy tushunchalari. Didaktik tizimlar.
34. Xorijiy mamlakatlar maktablarida tarbiya konsepsiyasining asosiy g'oyalari.
35. Shaxsning rivojlanishi va ijtimoiylashuvchi.
36. Pedagogika fanida ilmiy-metodologik yondashuv.
37. Mustaqillik yillarida uzluksiz ta'lim tizimiga xorijiy talablarning joriy etilishi.
38. Kadrlar malakasini oshirish, ularni qayta tayyorlash tizimidagi islohotlar mazmuni.
39. Faoliyat tushunchasi va uning asosiy tavsiflovchi belgilari.
40. O'quv jarayoni funksiyalari.
41. Jamoa haqida tushuncha. Jamoaning pedagogik vazifalari.
42. Ta'lim tizimi turlari.
43. Xorijiy davlatlar ta'lim modellari.
44. Pedagogika ijtimoiy fan sifatida. Pedagogika fanining obyekti va predmeti.
45. Pedagogikada gender xususiyatlarining o'ziga xosligi.
46. Pedagogik tadqiqotlarda matematik modellashtirish.
47. Oila tarbiyasi va oila pedagogikasi.
48. Tarbiya jarayoni mazmuni va tarbiyalanganlik darajasi.
49. Ta'limning tashkiliy shkalalari. Turli tipdagi darslar tuzilmasi.
50. Maktab ta'limidagi islohotlar.
51. Avtodidaktika bilim oluvchi ta'lim texnologiyasini loyihalash nazariyasi va amaliyoti sifatida.
52. Ta'lim vositalarining tavsiflanishi.
53. Pedagogikaning taraqqiyot bosqichlari.
54. Impakt faktor tushunchasi, hisoblash metodikasi, afzallik va kamchiliklari.
55. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar tavsifi.
56. Aksiologiya fan tarmog'i sifatidagi tavsifi.
57. Shaxs kamoloti ijtimoiy-biologik hodisa, pedagogik jarayon obyekti va subyekti sifatida.
58. Ta'lim muassasasi va pedagoglar attestatsiyasi.
59. Ta'lim metodlarining tavsiflanishi.

60. Neyropedagogika tasnifi.
61. Ta'lim mazmunini tanlash prinsiplari.
62. Ta'lim sifati menejmenti va uning asosiy turlari.
63. O'quv maqsadlari taqqosnomasi va mohiyati.
64. Ilmiy bilim, ularni amaliyotda qo'llash ko'nikma va malakalarini shakllantirish.
65. Nodavlat ta'lim muassasalari faoliyatining shakllantirilishi.
66. Inklyuziv ta'limni amalga oshirishning psixologik-pedagogik asoslari.
67. Tajriba-sinov ishlarida validlik tushunchasi.
68. Ta'lim muassasalarida o'quv jarayonining rejalashtirilishi.
69. Pedagogikada fanlararo aloqadorlik g'oyalari va tamoyillari.
70. Prognostik tadqiqotlarning metodologik asoslari.
71. Pedagogik antropologiya va uning zamonaviy tendensiyalari.
72. Ta'lim muhitini yaratish va rivojlantirish texnologiyalari.
73. Zamonaviy pedagogikaning innovatsion rivojlanish tendensiyalari.
74. Pedagogik tadqiqotlarning ijtimoiy-falsafiy jihatlar.
75. Ta'lim tizimini insonparvarlashtirish va gumanizatsiyalash prinsiplari.
76. Ilmiy bilishning sinfdan tashqari usul va vositalari.
77. Jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirishning zamonaviy pedagogik aspektlari.
78. Pedagogik va psixologik bilimlarning didaktik aloqadorligi.
79. Pedagogik tadqiqotlar mantig'i.
80. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim: mohiyati, prinsiplari, texnologiyalari.
81. Ta'limda uzluksiz va uzviylik prinsiplari.
82. Ta'limni tabaqalashtirish va individuallashtirish: asosiy prinsiplari va usullari.
83. Pedagogikada qo'shimcha ta'lim, uning shakllari.
84. Amaliy pedagogika: mohiyati, holati va shakllari.
85. Tarbiyalanuvchilarning reproduktiv va ijodiy bilish faoliyati.
86. Ta'limning texnikaviy vositalari, kompyuterlar va turli audiovizual vositalardan foydalanish imkoniyatlari.
87. Fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, fuqarolik hissini rivojlantirishning pedagogik tamoyillari.
88. Oila – mahalla – maktab hamkorligini tashkil etishning didaktik va metodik asoslari.
89. O'quvchi-yoshlarda innovatsion fikrlashni rivojlantirish jarayonini boshqarishning pedagogik aspektlari. STEAM ta'lim texnologiyasi. Uning jahonda va O'zbekistonda qo'llanilishi.
90. Pedagogik loyihalashtirish va modellashtirish.
91. Ta'lim oluvchilarda mafkuraviy immunitet, yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirishning pedagogik aspektlari.
92. Ta'lim tizimi zaxiralarini yaratish jarayoni va uning pedagogik imkoniyatlari.
93. Tarbiya mohiyati va mazmuni. Tarbiyani amalga oshirish prinsiplari.
94. Pedagogik tadqiqot metodologiyasi (tadqiqotning mafkuraviy asoslari).

95. Pedagogika fanining rivojlanishiga tadqiqot yondashuvlari, ularning mosligi va qo'llanish chegaralari; pedagogik tadqiqot usullari.

96. Pedagogika fanining predmeti sohasini rivojlantirish; pedagogika fani; pedagogik tadqiqotda fanlararo munosabatlarning o'ziga xosligi.

97. Pedagogika fani va o'quv amaliyoti o'rtasidagi munosabatlarning dialektik tabiati.

98. Prognozli tadqiqotning metodologik asoslanishi; keng ko'lamli jamoaviy tadqiqotlarning metodologik asoslanishi; pedagogik tadqiqot sifati).

99. Pedagogika fani va o'quv amaliyotining rivojlanish tarixi (o'quv amaliyotining tarixiy rivojlanishini tahlil qilish).

100. Ilmiy-pedagogik g'oyalar, tushunchalar, nazariyalarni shakllantirish va rivojlantirish; o'tmishning atoqli pedagoglari pedagogik merosini monografik o'rganish.

Izoh: mazkur savollar namunaviy tavsifga ega bo'lib, dastur mazmunidan kelib chiqib, savollar to'plami kengaytirilishi mumkin.

Baholash mezonlari

Eng yuqori ball - 100 ball

Saralash ball - 55 ball

55 balldan - 71 ballgacha (56- 70,9%) - qoniqarli

71 balldan - 86 ballgacha (71 - 85,9%) - yaxshi

86 balldan - 100 ballgacha (86 - 100%) – a'lo

1) talabgor javobi **86-100 ball** bilan baholanishi uchun:

- bilet savollarining barchasiga to'g'ri javoblar berilsa;
- dasturdan tashqari zamonaviy materiallardan xabardor bo'lsa;
- qonun-qoidalar, nazariya va taxminlar, tushunchalar va tasavvurlar to'g'ri

bayon etilsa;

- bayonda ilmiy xatoliklarga yo'l qo'yilmay, material mazmunining ilmiy va mantiqiyliqi saqlansa.

2) talabgor javobi **71-85 ball** bilan baholanishi uchun:

- savollarga javoblar to'g'ri, ammo dastur talablari doirasida cheklangan;
- javoblarda ilmiylik buzilmagan;
- bayon mazmunida mantiq saqlangan;
- qonun-qoida, nazariya va taxminlar, tushuncha va tasavvurlar bayonida

xatoliklar uchramasa;

- berilgan topshiriqlarning bittasiga to'liq javob berilmasa.

3) talabgor javobi **55-70 ball** bilan baholanishi uchun:

- savollarning uchdan ikki qismiga to'g'ri javob berilsa;
- savollarga berilgan javoblar yuzaki, ammo ayrim xatoliklarni hisobga

olmaganda, umuman to'g'ri;

- bayonda ba'zan mantiqiy chalkashliklar qayd etilsa;

- qonun-qoida, nazariya va taxminlar, tushunchalar va tasavvurda ayrim noaniqliklarga yo'l qo'yilsa.

Quyidagi holatlarda talabgor javobi 55 dan past ball bilan baholanishi mumkin:

- savollarning uchdan ikki qismiga javob berilmasa, yoki umuman javob berilmasa;
- savollarga berilgan javoblar aniq bo'lmasa yoki noto'g'ri bo'lsa;
- savollarga berilgan javoblar noaniq va mantiqiy chalkash bo'lsa;
- ilmiy xatoliklarga yo'l qo'yilsa.

FOYDALANISHGA TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

I. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: 2023-yil 30-aprelda qabul qilingan [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-6445145>.

2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni: 2020-yil 23-sentyabr, O'RQ-637-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-5013007>.

3. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonuni: 2016-yil 14-sentyabr, O'RQ-406-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-3026246>.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni: 2020-yil 6-noyabr, PF-6108-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-5085999>.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori: 2021-yil 25-yanvar, PQ-4963-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-5239538>.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha va maktab ta'limini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori: 2022-yil 11-may, PQ-241-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-6008665>.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha va maktab ta'limini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori: 2022-yil 11-may, PQ-241-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-6008665>.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni: 2019-yil 29-aprel, PF-5712-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-4312785>.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori: 2018-yil 14-avgust, PQ-3907-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-3864155>.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori: 2020-yil 6-noyabr, PQ-4884-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-5085887>.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori: 2020-yil 13-noyabr, PQ-4860-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-5044711>.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Zamonaviy maktab"larni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori: 2019-yil 27-noyabr, PQ-4537-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-4613683>.

13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumta'lim maktablari uchun muqobil darsliklarni yaratish va ulardan foydalanish tizimiga bosqichma-bosqich o'tish mexanizmini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori: 2019-yil 5-aprel, 281-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-4273357>.

14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori: 2020-yil 6-iyun, 422-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/ru/docs/-4885018>.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari va nutqlari

1. Mirziyoyev Sh. M., Yangi O'zbekiston Strategiyasi. Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 464 b.

2. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 488 b.

3. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 592 b.

4. Mirziyoyev Sh. M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – 400 b.

5. Mirziyoyev Sh. M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2020. – 400 b.

III. Asosiy adabiyotlar

1. Xodjaev B. X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – T.: "Sano-Standart", 2017. – 416 bet.

2. Ishmuhamedov R. J., Yuldashev M. A. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Nihol, 2013. – 279 b.

3. Paxrutdinov Sh. Global axborot jamiyati va medita'lim. – Toshkent: 2015.

4. Egamberdiyeva N. M. Ijtimoiy pedagogika. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.

5. Ibragimov X. I., Abdullayeva Sh. A. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2008.

6. Ishmuxammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste'dod. 2010.

7. Ismoilova Z. Pedagogikadan amaliy mashg'ulotlar. – Toshkent: Fan, 2001.

8. Abdullayeva M., Asqarova O., Hayitboyev M. Ta'lim tarixi – Toshkent: Muharrir, 2014.

9. Madiyarova S. A. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: "Iqtisod-moliya", 2009.

IV. Elektron manbalar

1. gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi Hukumati portali.
2. lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.
3. uzedu.uz – Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining rasmiy sayti.
4. ziyonet.uz – axborot ta’lim portali.
5. edu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi sayti.
6. infocom.uz – “Raqamli iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnali sayti.